



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2019-yil. 1-son.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я **ПРЕПОДАВАНИЕ**
Я **ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ**
L **LANGUAGE AND LITERATURE**
TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Bosh muharrir:

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Ulug'bek INOYATOV
Nizomiddin MAHMUDOV
Kadirbay BEKTURDIYEV
Nargiza RAHMONQULOVA
Mamatqul JO'RAYEV
Maqsudjon YO'LDOSHEV
Sirojiddin SAYYID
Jabbor ESHONQULOV
Abdurahim NOSIROV
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)
Shahnoza JO'RAYEVA

Jamoatchilik kengashi:

Muhammadjon ALIYEV
Ergesh ABDUVALITOV
Manzura DADAXO'JAYEVA
Ehson TURDIQULOV
Valijon QODIROV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ul:

Vazira IBROHIMOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:

100011, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jumaldan ko'chirib bosilgan maqolalar «Til va adabiyot ta'limi»dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jumalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 15.02.2019-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84¹/₈. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Arial» garniturasini. 10, 11 kegl. «SANO-STANDART» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Olmazor tum., Shiroq ko'chasi, 100. 17-661-son buyurtma. Adadi 5600 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

MUNDARIJA

AKADEMIKLAR SUHBATI

Bahodir Jovliyev. Istiqbol va boburshunoslik: yutuqlar va istiqbol	3
NAVOIYXONLIK	
Asror Mo'min. Navoiy navosida o'zbekim vasfi	6
Munira Xudoyorova. "O'qub o'tmak, uqub o'tmak shiori..."	8
Elmurod Nasrullayev, Umrxol Po'latova, Mahliyo O'ralova. Rivoyatlarda Navoiy obrazi talqini	11

TAHLIL

Shavkat Nishonov. Saxovatpesha shahanshoh	14
Baxtiyor Mengliyev, Boshorat Bahriddinova. Ona tili ta'limidagi tang holat yoki tildagi "oralik" hodisalar haqida	16

YANGI RUKN: MATNSHUNOS KASHFIYOTI

Vahob Rahmonov. Yangi shahri haqidagi yangilik	19
--	----

DARS - MUQADDAS

Dilbar Narzulloyeva. "O'tkan kunlar" romani timsollari tahlili	20
Maxfurat Otayeva. So'z ichra mudom aql yashirindur	22
Munira Husanova. Olqish olgan omondir	25

METODIK TAVSIYA

Oydin Mo'minova. O'zbek tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalarning o'rnini	27
Tozagul Matyoqubova. Alisher Navoiy hayoti va ijodini uzluksiz ta'lim tizimida o'qitish muammolari	29
Gulnora Xolboyeva. Adabiyot darslarida Blum taksonomiyasini qo'llash samarasi	31
Olimjon Eshimbetov. O'quvchilar og'zaki nutqini o'stirishda yozma ishlarning o'rnini	33
Shahlo Yuldasheva, Nazokat Yuldasheva. Interfaol diktant - savodxonlikni baholashning elektron tizimi	35

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Aziz Xujamkulov. Bo'lajak filolog o'qituvchilarning nutqiy malakalarini rivojlantirish texnologiyasi	37
Dildora Otaqulova. To'liq jismoniy reaksiya usulidan foydalanish	38
Shahnoza Turniyozova. Matnning kognitiv-pragmatik muammolari	39

TADQIQOTLAR

Samida Mustafayeva. Xitoy tilini o'qitishda mumtoz badiiy asarlar tadqiqining ahamiyati	41
Saodat Kambarova. Adabiy ta'limda virtual laboratoriyalar tashkil etish masalalari	43
Umidaxon Usmonova. Xorijiy til ta'limida differensial yondashuv	46

KICHIK TADQIQOT

Shaxzoda O'ljayeva, Sharifa Karimova. Til o'rgatishda metodika va didaktika uyg'unligi	47
Munira Muhiddinova. Masofaviy ta'limning rivojlanish tarixi	48

ПРИЛОЖЕНИЕ

МЕТОДИКА. ОПЫТ

Исмилгул Файзиёва. Алишер Навоӣ – в стихах и памяти народа	1
Дилбар Байматова. Как описать предмет по внешнему виду	3
Арзы Феттаева. Здравствуй, гостя-зима	4
Лариса Ким. Виды текстов	7
Венера Жамединова. Игровые технологии по обучению русскому языку	10

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Елена Каминская. Планета детства Евгении Гапчинской	13
Халида Валиева. Методика проведения занятия	14

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Зарина Бабаева. Непрерывное образование как механизм для обеспечения готовности преподавателя к инновационной деятельности	16
Маргарита Булычёва. О публичных выступлениях на конференциях и семинарах	17

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Маргарита Галиева. Аллюзивный антропоним как вербализатор структур знания в художественном тексте	19
---	----

ХРОНИКА

Эльвина Алиева. Актуальные проблемы русского словообразования – 2019	21
--	----

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Нилуфар Зокирова. Способы цитирования в русскоязычном художественном тексте	22
---	----

ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ

Анвар Юсупов. Об изучении лексики в плане сочетаемости слов в английском языке	25
--	----

СВЕТ НЕГАСНУЩИХ ИМЕН

Дилноз Рузиева. Захириддин Бабур – патриот, политик и поэт	26
Анатолий Лиходзиевский. Классик, отгородившийся от мира	28
Памятные даты 2019 года	32

Saodat KAMBAROVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi

ADABIY TA'LIMDA VIRTUAL LABORATORIYALAR TASHKIL ETISH MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada adabiy ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanishning samarali jihatlari xususida so'z yuritiladi. Xususan, virtual laboratoriyalar va panoramik tasvirlar yaratish orqali o'quvchilarni mutolaaga qiziqtirish masalalari tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, virtual borliq, virtual laboratoriya, multimedia, pedagogik dasturiy vositalar, kompyuter.

Аннотация. В статье рассматривается эффективность использования информационно-коммуникационных технологий в процессе литературного обучения. В частности, рассмотрен вопрос как заинтересовать студентов чтением при помощи виртуальных лабораторий и панорамных изображений.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии, виртуальная реальность, виртуальная лаборатория, мультимедиа, педагогическое программное обеспечение, компьютер.

Annotation. The article discusses the effectiveness of using information and communication technologies in the process of literary education. In particular, the question of how to interest students in reading with the help of virtual laboratories and panoramic images was considered.

Key words: information and communication technologies, virtual reality, virtual laboratory, multimedia, pedagogical software, computer.

Bugungi globallashuv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'quv jarayoniga uyg'unlashuvi yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirishi barobarida pedagog xodimlar zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklashi tabiiydir. Turli fanlar yo'nalishida multimedia vositalari, kompyuterining uskunaviy va dasturiy ta'minotidan foydalanishga doir metodik ko'rsatmalarning talab darajasida yaratilmaganligi, bu borada pedagoglar tayyorgarlik darajasining pastligi ta'lim tizimida AKTni qo'llash mazmunini takomillashtirishni hamda masalani zamonaviy yondashuvlar asosida isloh qilishni taqozo etadi.

Milliy ta'limning modernizatsiya jarayonlari adabiyot o'qitishda virtual shart-sharoitlarni vujudga keltirish, axborot texnologiyalarini qo'llash strategiyalari va strukturasi belgilash, dasturiy ta'minotni tanlash va rivojlantirish, elektron majmualar yaratishning yagona standart va dasturlarini ishlab chiqish kabi qator dolzarb vazifalar ijrosini nazarda tutadi.

Inson madaniy hayotining barcha jabhalariga singib ulgurgan virtual borliq, virtual sayohat, virtual ko'rgazma, virtual drama kabi tushunchalar xayoliylikdan real hayotga o'tishni ta'minlayotgani bugun barchaga yaxshi ayon.

Virtual (lotincha "virtualis" – mumkin bo'lgan, ya'ni muayyan bir sharoitlarda sodir bo'ladigan yoki ro'y berishi mumkin bo'lgan) tushunchasi narsa va hodisalarning vaqt va makonda mavjud bo'lmagan, lekin obyektiv va subyektiv obrazlarning amalga oshishi ehtimoli mavjud jarayonni anglatadi¹.

Virtual laboratoriya – o'rganilayotgan haqiqiy obyektlarda bo'layotgan jarayonlarni kompyuter imitatsiyasi orqali taqdim etish va masofaviy kirish imkoniyatiga ega bo'lgan dasturiy majmua². Virtual laboratoriyaning afzalligi hisobga olingan mavjud shart-sharoitlar va axborot tex-

nologiyalari vositasida eng samarali tajribalarni o'tkazishga qulaylik yaratilishida bo'lib, kreativ va kognitiv xususiyatlarni yanada rivojlantirishni nazarda tutadi.

Virtual laboratoriyalar tashkil etish muammosi xorijiy davlatlarda F.Amari, S.Vong, S.Demetriadis, S.Sesiliya, A.Kozlenko kabi olimlar tomonidan maxsus o'rganilgan bo'lib, ularda virtual ta'lim texnologiyasi, multimedia va ilovalari, multimedia bilan ishlovchi dasturlar, o'quv jarayonida simulatordan foydalanish, panoramik tasvirlar bilan ishlash, virtual ta'lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar xizmatidan foydalanishga doir masalalar yoritiladi.

Yosh avlodning intellektual salohiyati va pluralistik qarashlarini rivojlantirish maqsadida mamlakatimizda multimedia dasturiy vositalaridan foydalanish, onlayn muhitda virtual laboratoriyalar tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratilayotgan bo'lib, bu borada M.Lutfillayev, M.Fayziyev, R.Djurayev, U.Taylakov, A.Ibraymov, M.Fayziyeva, Sh.Ergashev, A.Kalontarov, U.Nasritdinova, Z.Sherdonov, K.Tursunmetov, S.Muhamedova, Sh.Yuldasheva, Z.Sangirova, B.Zohidova kabi ko'plab olim va tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari kuzatilmoqda.

Ko'rilayotgan masalaga oid tadqiqot ishlarida ta'kidlanishicha, virtual laboratoriyalar tirik organizmlarda kechadigan biologik, fiziologik, psixologik jarayonlarni multimedianting texnik-dasturiy vositalari doirasida tasvirlash va namoyish etish bilan birgalikda qayta aloqani ta'minlash imkonini beradi. Multimedia (ko'p muhitlilik) – bu kompyuter texnologiyasining turli xil fizik ko'rinishiga ega bo'lgan (matn, grafika, rasm, tovush, animatsiya, video va h.k.) va turli xil tashuvchilarda mavjud bo'lgan (magnit va optik disklar, audio va video lentalar va h.k.) axborotdan foydalanish bilan bog'liq sohasidir³. Ta'kidlash joizki, labora-

toriyalarda virtual tajribalarni amalga oshirishda vaqtdan, tegishli resurslardan unumli foydalanish, natijalarni kafo-latlash, obyekt bilan ishlashda kamchiliklarni to'g'rilashga muvaffaq bo'linadi.

Milliy ta'lim sohasida muayyan fanlarga mavzulashtirilgan multimediali darsliklarning yetarli emasligi istiqbolda turli o'quv predmetlari, xususan, adabiyot o'qitishni multi-media elektron majmualarining zamonaviy avlodlari bilan uyg'unlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Adabiy ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib mavzuga oid grafik tasvirlar namoyish etish, voqea-hodisalar, qahramonlar portretiga xos xususiyatlar, nazariy tushunchalarni virtual shaklda uzatish asar mazmunini, g'oyaviy-badiiy maqsadini anglash, egallangan bilimlarni amalga tatbiq etishga yordam beradi.

Adabiyotning inson hissiyotlari, tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishi nazarda tutilsa, o'quvchi asarni o'qish jarayoni-da hayotiy va badiiy haqiqatni teran anglashi, o'zlashtirganlarini boshqalar bilan muhokama qila olishi, matn bilan ishlash chog'ida adabiy-nazariy tushunchalarni qo'llay olishi kabi fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish maqsadi amalga oshiriladi. Binobarin, o'quvchi uchun bilimlar va adabiy ta'lim mazmunining yuqoridagi darajalari mutanosib bo'lishi murakkab jarayon hisoblanadi.

Virtual tajribalar uchun dasturiy ta'minotga o'qituvchi obrazli tafakkur va badiiy to'qimani ochib berishga qaratilgan g'oyalarini taqdim etishi mumkin bo'ladi. Shu yo'l bilan o'quvchilarning badiiylik, obrazlilik va obrazni tushunish kabi adabiy-nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish vazifalari amalga oshirilishi belgilanadi. Dastur animatsiya shaklidagi voqea-sujet, xarakterni ochib beruvchi vosita, konflikt, sujet elementlari, detal hamda badiiy mahorat kabilarni ifodalash xususiyatiga ega. Animatsiyalarni adabiy jarayonga tatbiq etish esa idrok, anglash va bilish jarayonlarini yengillashtiradi, voqelik va hodisalarni aniq, ko'rgazmali tarzda jonlantiradi.

Adabiy ta'limda nazariy tushunchalar, qahramonlar tashqi portreti, atrof-muhit, tabiat bilan bog'liq mavsumiy o'zgarishlarni virtual tarzda berish imkoni mavjud bo'lsa ham, insonlarga xos ichki kechinmalar, o'y-xayollar, his-tuyg'ularni virtual tarzda yetkazish qiyin jarayon hisoblanadi. Obrazlarning xarakter xususiyatlari yoki ruhiyat manzaralarini o'lchash imkoni mavjud emasligi nazarda tutilsa, bu turdagi mashg'ulotlarni tashkil etishda ahamiyat qaratiladigan asosiy xususiyatlar nimada, ularga oid dasturlar qanday tuziladi, jarayon qanday rejalashtiriladi va amalga oshiriladi, nimalardan qay tartibda foydalaniladi, degan qator savollar tug'iladi.

Buning uchun, avvalo, virtual laboratoriyalar mazmuni o'rganilayotgan fan samaradorligini oshirishga ta'siri, o'qitish jarayoni talablariga javob berishi nuqtayi nazardan belgilanishi zarur. Bunda topshiriqlar strukturasi, o'quv materiallarini yetkazish shakli, kerakli axborotlarni izlash va nazorat usullari mavjudligi, umuman, o'qitish jarayonining tashkiliy xususiyatlari e'tiborga olinadi. Ma'lumki, multimediali elektron-pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish orqali avtomatlashtirilgan grafik va murakkab loyihalash ishlari olib boriladi. Pedagogik dasturiy vositalar o'qituvchilarning o'qitish g'oyalarini dasturda shakllantirish, uni tahlil qilish, qo'llash va baholash orqali takomillashtirishga xizmat qiladi.

K.Tursunmetovning fikricha, pedagogik dasturiy vositalar kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayoni-ni qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita bo'lib, ularni yaratishda an'anaviy vositalardan farqlanuvchi didaktik, psixologik va ergonomik (qulay (komfrot) vizual va audio muhit, ranglar xarakteristikasi, axborotning fazoviy joylashuvi, diqqat darajasini oshirish, tushunishni tashkillashtirish) kabi omillar mavjud⁴.

Tadqiqotimizda adabiy virtual laboratoriyalar mazmuni quyidagi mezonlarga tayanib tarkiblantirilishi ko'zda tutiladi:

1. O'quvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlariga ko'ra topshiriqlarning ilmiy va kreativ xarakterda bo'lishi;
2. Mavzular va fanlararo integratsiya ta'minlanishi;
3. Materiallar hajmi va vaqtning me'yorida oshib ketmasligi.
4. Nazariya va amaliyot uyg'unligiga erishilishi;
5. Topshiriq mazmuni aniqligining ta'minlanishi, bunda o'quvchi qiziqishi va ehtiyojining nazarda tutilishi;
6. Topshiriqqa oid bilimlarning manba bilan uzviyligi hisobga olinishi.
7. O'quv dasturi materiallari asosida izchillikning saqlanishi.
8. Mavzuning past, o'rta va yuqori saviyadagi o'quvchilar imkoniyatlariga muvofiq kelishi va h.k.

Virtual laboratoriyalarni tashkil etishda mavzular konkret, ishonchli va ilmiy asoslangan bo'lishi; topshiriqlar o'quvchilar bilimi va hayotiy kuzatishlariga mos kelishi; tajribalar voqelik va hodisalar evolutsiyasining ichki va tashqi mantiqiylikni aks ettirishi, jamiyat va tabiat haqidagi tushunchalarni boyitishi; ovozi dasturlar, rasmi ishlanmalar, harakatli yozuvlar, multiplikatsiya ko'rinishidagi filmlar hamda animatsiyalarning o'quvchi sezgi a'zolariga ta'sirini ko'zlab loyihalashtirilishi va modullashtirish maqsadga muvofiq.

Bunda fan o'qituvchisi va kompyuter mutaxassisi (dasturchi) hamkorligida matndan harakatli tasvirlar ishlash mumkin bo'lgan epizodlar tanlab olinadi. Boshlang'ich ta'limda hikmatli so'zlar, tez aytishlar, topishmoqlar, masallar va ertaklar, yuqori sinflarda geografik yo'nalishlarga boy sarguzashtlar sujetini o'ziga xos va noan'anaviy virtual sayohatlarni yaratishning optimal ko'rinishlari sifatida belgilash mumkin.

Barcha yoshdagilar uchun birdek sevimli va qiziqarli hisoblangan janr – topishmoqlar zamirida yashirin sifatlari aniqlanayotganida inson undagi belgi-xususiyatlarni xayolida pishitib, hayotda mavjud belgilariga solishtirib mantiqan fikrlashga harakat qiladi. Topishmoqlarga oid virtual laboratoriyalarni nasriy va she'riy shaklda, tuzilishiga ko'ra bir yoki bir necha predmetli jumboqlardan iboratligiga ko'ra tanlash mumkin. Masalan, bir predmet va uning detallari yashirin "Bir daraxtda o'n ikki shox, har shoxda o'ttiz yaproq – bir yog'i qora, bir yog'i oq" topishmog'i mazmunini "Daraxt – yilning to'rt fasli, o'n ikki oy – shox yoki butoqlar, o'ttiz kun – yaproq, kecha va kunduz – qora va oq ranglar" kabi tasvirlar orqali grafik loyihalashtirish mavzuni obrazlashtirilgan holda oson va yengil o'zlashtirish imkonini beradi.

O'rganilayotgan mavzuning teran anglanishi uchun qo'shimcha ravishda o'xshatish, sifatlash, mubolag'a, kichraytirish, metafora, jonlantirish kabi tasvir vositalari va usullarining mazkur janrda mavjudligini grafik tasvirlash

o'quvchining ko'rish, eshitish kabi sezgi a'zolari faoliyatining o'zaro bog'liq holda rivojlanishini ta'minlaydi.

Kuzatishlar o'zbek xalq ertaklarining kirish qismi, masalan, "Ertagi-yo ertagi, echkilarning bo'rtagi, qirg'ovul qizil ekan, quyruqi uzun ekan, ko'k muzga mingan ekan, muruti singan ekan, g'oz karnaychi ekan, o'rdak surnaychi ekan, ola qarg'a azonchi, qora qarg'a qozonchi, chumchuq chaqimchi ekan, to'rg'ay to'qimchi ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, ertagimning eri bor, yetti kunlik yeri bor, yetti kunlik yerida dumi kalta bo'ri bor. Bir bor ekan, bir yo'q ekan..."⁵ tarzidagi boshlamalarni mustaqil mutolaa qilish jarayonida kichik yoshdagi o'quvchilarning idrok qilish darajasi pastligi ko'rinadi.

Ertaklarga oid virtual laboratoriyalarni shakllantirishda boshlamalar mazmunini alohida sharhlash va jonlantirish talab etiladi. Xususan, ayrim so'zlar ma'nosining harakatli tasvirlar uyg'unligida aks ettirilishi ertaklar olamiga xayoliy sayohatning qiziqarli debochasi bo'lib xizmat qiladi. Lekin aksariyat ertaklar sujeti uydirmalarga asoslanishi, ularda keltirilgan ayrim so'z, jumla yoki iboralar real hayotda uchramasligi haqida o'quvchilarga izoh berib ketilishi maqsadga muvofiq. Masalan, "ertagimning eri bor, yetti kunlik yeri bor" kabilar.

Bunday hollarda virtual mahsulot muallifi tomonidan o'quvchi hamisha e'tibor qaratavermaydigan, lekin izohi so'ralganida ma'nosini tushuntirib berishga ikkilanadigan, hatto bu haqida shu kungacha o'ylab ham ko'rmagan jumla va iboralarga alohida to'xtalish bola tushunishi va, hatto tasavvurida jonlantirishi qiyin kechadigan ayrim xususiyat yoki xayoliy uydirmalarning ma'lum darajada oydinlik kiritilishiga muayyan shart-sharoit yaratiladi.

Boshlamalardagi insonlar sajiyasi, kasb-kori, xatti-harakatlari, narsa-buyum, voqea-hodisalarning belgi-sifatlari biror jonzot yoki o'simlikda mujassamligi matndagi mavhum tushunchalarga aniqlik kiritishni taqozo etadi. Binobarin, qirg'ovulning muzda sirpanib, muruti (burni) sini-shi-yu ertakning ham eri bo'lishi tasavvurga sig'masligi, yetti kunlik yer nimaga ishorali-yu va unda aynan dumi kalta bo'ri ishtirok etishi ajablanarli bo'lib, bolaning nafaqat yolg'iz o'zi, balki tengdoshlari, hatto butun oila a'zolari bilan hamkorlikda mushohada yuritishi, o'qib-izlanishga yo'naltirilishi nuqtayi nazaridan dolzarblik kasb etadi.

Virtual borliq – real borliqda harakat qilayotgan illuziyani kompyuterda yaratish imkonini beruvchi interaktiv texnologiya.⁶ Virtual borliqda reallik insonning sezgi organlari orqali emas, maxsus interfeys (foydalanuvchi, tarmoq yoki tizim o'rtasidagi o'zaro ta'sirni aniqlash shakli), kompyuter grafikasi va ovoz yordamida hosil qilingan sun'iy axborotlar yordamida idrok qilinadi.

Multimedia ilovalari (matn, rasm, tovush, panorama, animatsiya, video) vositasida simulatsiyalangan veb sayohatlarga omma e'tiborini tortishda panoramik tasvirlar

faollashtiruvchi kuch sanalib, amalda ularning chizilgan, tasvirga olingan va videofilm ko'rinishidagi turlariga murojaat qilinadi.

Kitobxonlikka oid panoramik virtual sayohatlarni asar sujeti va kompozitsion qurilishi, obraz-personaj xarakterini yoritish, matnga doir animatsiyalar ishlash, subyektga mos ovoz tanlash kabi operatsiyalar yordamida amalga oshirish mumkin. Panoramik tasvirlarning interfaol xarakterdaligi foydalanuvchini o'ziga jalb etib, manbalarga takror munosabatni yuzaga keltiradi. Masalan, o'quvchida biror ijodkor to'g'risida ma'lumot olish istagi tug'lsa, u uyida o'tirgan holda ta'lim muassasasi saytiga kirib, mavzu yuzasidan yaratilgan veb sayohatlarning faol ishtirokchisiga aylanishi mumkin.

Veb sayohatlar dastur bo'yicha muhim mavzularning tanlanishi; sayohat obyektining belgilanishi va unga oid muhim axborotlar omborining shakllantirilishi; zarur o'rinlarda sujet yo'nalishi bo'yicha elektron xaritalar tayyorlanishi (masalan, 9-sinfda Bobur umrbayonini o'rganishda uning lashkari bilan yurgan yo'llari yoki shoir merosini o'rganish borasida tashkil etilgan xalqaro ekspeditsiyaning sayohat marshruti kabi); yig'ilgan ma'lumotlar asosida rasm yoki videotasvir olinib, panorama tayyorlanishi yaxlit mahsulot darajasiga keltiriladi.

Yozuvchi ijodining takrorlanmas adabiy-estetik hodisaligini yetkazishda, albatta, tarixiy sharoit, davr ruhi, madaniyati, san'ati namunalari va an'analarini virtual akslantirish o'quvchi badiiy didi va mantiqiy tafakkuri ta'komiliga bevosita daxldor. Bunda, ijodkor fotoalbomidagi suratlar qo'shimcha holda muqaddas qadamjolar, tarixiy yodgorliklar ansambllari, muzey, kutubxonalar, ko'rgazmalar galereyasi, xalq amaliy san'ati namunalari, hatto o'simlik va hayvonot olami chizgilaridan kompleks foydalanib, ijodiy muhit yaratiladi, shu asosda o'quvchi milliy o'zlikni anglash ruhida kamol toptiriladi.

Ayrim tarixiy shaxslar o'tmishiga oid fotolavhalar mavjud emasligi e'tiborga olinsa, ular yashab o'tgan joylarning geografik tuzilishi, kitob va yaratgan kashfiyotlari mazmuni asosida maxsus panoramik jamlanma tuzishga ehtiyoj mavjudligini ta'kidlash o'rinlidir. Masalan, hadislar mavzusini o'rganishda Samarqanddagi Imom al-Buxoriy me'moriy majmuasini tasvirga olib videopanorama tayyorlash, mavzu ichiga chuqurroq kirib, hatto muhaddis ma'lum muddat umrguzaronlik qilgan va tahsil olgan o'lkalarda virtual sayrni davom ettirishga qulay muhit yaratiladi.

Xulosa qilganda, virtual laboratoriyalar odatdagi multiplikatsion filmlardan farqli o'laroq, o'quvchining shunchaki vaqtini o'tkazish yoki asar qanday yakun topishiga qiziqishidan emas, balki maqsadli bilim olish hamda muto-laaga bo'lgan ehtiyojni qondirish talabini ko'zlab yaratilishi muhimroq.

¹ M.Fayziyeva, D.Sayfurov. Barcha ta'lim yo'nalishlari uchun "Virtual ta'lim texnologiyasi" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2016. 44-bet.

² O'sha manba. 143-bet.

³ O'sha manba. 27-bet.

⁴ K.A.Tursunmetov, D.Begmatova, F.B.To'raxonov. Fizikadan pedagogik dasturiy vositalar yaratishdagi muammolar // Fizika, matematika, informatika. – Toshkent, 2013. 1-son. 73-bet.

⁵ S.Ahmedov va boshq. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2007. 62–63-betlar.

⁶ M.Fayziyeva, D.Sayfurov. Barcha ta'lim yo'nalishlari uchun "Virtual ta'lim texnologiyasi" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2016. 45-bet.